

DAVLATNI RIVOJLANTIRISHDA CHET TILLARINING TUTGAN O'RNI

Orifova Rayxona Odilovna

*talaba, SamDCHTI*

Sh.O.Mamayoqubova

*Ilmiy raxbar:*

**Annotatsiya:** *siz ushbu maqola orqali bugungi kunda til o'rganishga bo'lgan e'tibor va xorijiy tillarning hayotimizda o'rni haqida bilib olishingiz mumkin. Shu bilan birga chet tili o'rganish ayniqsa ingliz tili bilishning foydalari haqida ma'lumotlar olishingiz mumkin. Eng muhimi yoshlar o'rtasida IELTS va CEFR ga bo'lgan qiziqish.*

**Kalit so'zlar:** *dunyo bo'ylab sayohat, chet tillar, ingliz tili, madaniyat, yangi do'stlar.*

**Abstract:** *through this article, you can learn about the importance of language learning today and the role of foreign languages in our lives. At the same time, you can get information about the benefits of learning a foreign language, especially English. The most important thing is the interest in IELTS and CEFR among young people.*

**Keywords:** *world travel, foreign languages, English, culture, new friends.*

Bugungi kunga kelib chet tillari ayniqsa, ingliz tili o'rganishga bo'lgan talab va qiziqish shunchalik kuchaydiki, bog'cha yoshidagi bolalardan boshlab katta yoshdagi mutaxassislargacha ingliz tili o'rganishga harakat qilyaptilar. Bu ijobiy holat albatta, chunki, til o'rganish o'sha tilda gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va urf odatlarini o'rganish bilan birga shaxsiy manfaatlar yo'lida ham eshiklar ochilishiga zamin yaratadi. Hammamizga ma'lum bo'lganidek hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarini mukammal o'rganadigan o'zi o'rganayotgan xorijiy tilda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash chet tillarini o'rganish orqali dunyo xalqlari madaniyatiga kirib borish belgilangan talabga javob beradigan kadrlarni tayyorlash yurtimizda o'tkazilinayotgan ta'lim islohotining maqsad va vazifalaridan biridir. Bugungi kunda har bir inson uchun xorijiy tillarni bilish juda muhimdir. Dunyo tobora globallashib borayotgani va ikki tili bilish, shunchaki qiziqish emas, balki zamon talabi bo'lib bormoqda. Chunki bugungi kunda ingliz tilining roli hayotimizda juda muhim va biz horijiy tillarni bilish orqali o'zimizga ko'p imkoniyatlar eshikini ochgan bo'lamiz. Til bilishning foydalari:

1. Dunyo bo'ylab sayohat. Sayohat qilish insonning har tomonlama yuksalishiga va uning fikrlash doirasining kengayishiga yordam beradi. Qachonki biz ko'p til bilsak shuncha ko'p davlat degani lk bugungi kunda bir ingliz tilining o'zini bilish orqali ham ko'plab davlatlarga sayohat qilishimiz va u yerdagi aholi bilan bemalol suhbat qilishimiz mumkin.

2. Ko'plab do'stlar. Biz hozir texnologiyalar rivojlangan zamonda yashayapsiz va bu texnologiyalar yordamida uyda o'tirgan holatda boshqa davlatdagi odamlar bilan

muloqat qilishimiz mumkin. Eng ular bilan do'stlshimiz va o'zaro muloqat almashishimiz yani o'rgatishimiz va o'rganishimiz mumkin bo'ladi.

3. Ish toppish kaliti. Chet tilini bilish ish topishda muhim hisoblanadi. Chunki chet tili o'qituvchilarning oylik maoshlari ham va ular bu orqali o'zlarining shaxsiy bizneslarini yaratishlari mumkin. Shu bilan birga chat tilini bilish orqali ular xorijiy davlatlarda ham bemalol yuqari oylik maosh to'laydigan davlatlarda ishlashlari mumkin bo'ladi.

4. Yangi madaniyatlar bilan tanishasiz. Tillar turlicha bo'lganidek, dunyo madaniyatlari ham shunday. Dunyo bo'ylab odamlar qanday yashaydi? Ular o'zlarini qanday tutishadi? Ularning qadriyatlari qanday? Bu bizning tabiatan izlanuvchan ongimiz beradigan savollar. Biz o'zimizdan va xalqimizdan tashqari boshqa odamlar va ularning madaniyatlarini bilishni xohlaymiz. Yangi tilni tushunganingizda, bu tilda gapiradigan odamlarning madaniyatini yaxshiroq tushunasiz. Til, siz allaqachon bilganingizdek, madaniyatning bir jihati. Yil bilishimiz bizning yangi madaniyatlar bilan tanishuvimizda asosiy kalit desak mubolog'a bo'lmaydi.

5. Katta sahnalarda o'zingizni ko'rish uchun asosiy bir bo'lak. Til bilish bu katta imkoniyatlar eshigi va shu bilan birga bejizga ota-bobolarimiz 'Til bilgan-el bilar' deb bejizga aytmagan. Til bilish orqali o'zimizning ijodimiz chet el jurnallarda ham chiqarishimiz mumkin bo'ladi. Chet tillarda o'quv qo'llanmalar, antalogiyalar va tarjima asarlar qilishimiz mumkin bo'ladi.

Bugungi lkunda ta'limga asosan til o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda va yoshlarga birinchi sinfdan boshlab chet tilini o'rgatish yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga davlatimizdagi yoshlarni ingliz tili umuman til o'rganishga qiziqтирак va ulardan yaxshi tarjimon, gid va o'qituvchilarni yetishtirib chiqargan bo'lamiz. Bu albatta davlat iqtisodiga ham katta foyda bo'ladi. Chet eldan turistlar tashrif buyursa ham o'zimizda yetarlicha gidlarimiz bo'ladi yoki chet el kitoblarini tarjima qilmoqchi bo'lsak o'zimizda tarjimonlarimiz bo'ladi yani biz kimgadir katta mablag' evaziga uni so'tib olmaymiz. Eng asosiysi, yosh avlodga chet tilini o'rgatish uchun xorijdan o'qituvchi chaqirmasdan o'zimizdagi professor o'qituvchilarimiz soni ko'paytirgan holda, ularning o'zlari yosh avlodga dars o'tishlari mumkin bo'ladi. Eng quvonarlisi shundaki bugungi kunda davlatimiz tomonidan chet tilini o'rgatishga katta e'tibor qaratilmoqda va maktablarda 1-sinfdan boshlab ingliz tilini o'rgatish yo'lga qo'yilgani yoshlar un juda katta imkoniyatdir.

IELTS va CEFR by nima? Hozirgi kunda yosh-u qari IELTS (International English Language Testing System) va CEFR ( Common European Framework of Reference for Languages) haqida yaxshi ma'lumot bilmasada birinchi bo'lib agar o'rganyapman desangiz darajang nechchi deb savol berishadi va biz shu orqali ham ular roli qanchalar muhim ekanligini bilishimiz mumkin bo'ladi. Bugungi kunda IELTS yoki CEFR borlar uchun keng imkoniyatlar bor. Ular maksimal ball to'plasa DTM testlarida ozod qilinadi va o'qishga kirishida katta yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, til bilish har bir inson uchun yangi imkoniyatlar kalitidir. Siz qancha ko'p til bilsangiz shuncha ko'p eshiklar siz uchun ochiladi. Aynan til bilish –

dunyoni anglash demakdir. Cher tilini o'rganishning afzaliklari sizning hayotingizni deyarli barcha jabhalarida muvaffaqat qozonishi uchun sizni moslashtirish qobiliyatiga ega. Til bu millatlar o'rtasida ko'prik vazifasini o'tovchi vosita undan qo'rqmay hatlab o'tganlar yutuq va yangi olamlar kalitini qo'lga kiritadi. Til o'rganing va o'zingizni, dunyo qarasingizni o'stiring, eng muhimi dunyo bo'ylab sayohat qiling.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://kiiky.com/uz/ikkinchi-tilni-o%27rganish/>
2. Sh.O.Mamayoqubova. “Мотивация В Процессе Развития Педагогического Мастерства И Компетенции Преподавателя”. Scientific Approach to the Modern Education system. Confirence of Germany, 1 avgust 2023, 100 p
3. <https://medium.com/@fotimaabdulaminova/til-organish-kaliti-12a90affbca8>